



ANKETA, SO'ROVNOMALARI VA NAZORAT TESTLARINI YARATUVCHI DASTURLAR

ABDURAZZOQOV ILHOM RUSTAMOVICH

*Termiz davlat pedagogika instituti
Informatika va uni o'qitish metodikasi o'qituvchisi*

SAFAROV AXROR XUDOYBERDI O'G'LI

*Termiz davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi*

KO'CHAROV NAVRO'ZBEK ERKIN O'G'LI

*Termiz davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi*

MAMADIYOROV BOYBURI MAHAMADI O'G'LI

*Termiz davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi*

XUSHBAQOV ABBOS SHERALI O'G'LI

*Termiz davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Anketa, so'rovnomalari va nazorat testlarini yaratuvchi dasturlar (Google Clasroom, Quizizz, Kahoot) haqida batafsil ma'lumot berildi.

Kalit so'zlar: Google Clasroom, Quizizz, Kahoot, GoogleDocs, Foydalanishdagi qulaylik, mobillik, tushunarliklik.

Kirish. Shu paytgacha test yaratuvchi dasturlardan ta'lim jarayonida foydalanib kelingan va hozirgacha foydalanilmoqda. Lekin dars jarayonida onlayn test yaratuvchi platformalardan deyarli foydalanilmaydi. Hozirgi rivojlangan texnika asrida internet axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish kerak. Shu paytgacha test yaratuvchi dasturlar ustida olimlar ko'plab ilmiy ishlar ustida ishlashgan va amalda sinab ham ko'rishgan.

Asosiy qism. Ta'lim jarayoni an'anaviy yoki masofaviy ta'lim bo'lishidan qat'iy nazar o'quvchilarning darsga qiziqishini orttirish ularni o'z ustida ishlashlari uchun undash mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. O'quvchi dars jarayonida savolni javobini bilmasa qo'rqib "bilmayman" deb emas aksincha shu savolni javobini qo'rqmasdan katta qiziqish bilan "bilmayman" lekin bilishni hohlayman deb javob berishi kerak deb o'ylayman nazarimda. O'quvchilar dars



jarayonida bilim olishga bo'lgan ishtiyoq, tirishqoqlik, qiziqish, dars jarayoni boshlanishini intizorlik bilan kutish ko'nikmalarini shakllantirish kerak. Shundagina ta'limda ancha o'sish va rivojlanish bo'ladi.

Hozirgi fan texnika rivojlangan davrda dars jarayonida interaktiv test yaratuvchi onlayn platformalardan foydalanish o'quvchilarning bilimini nazorat qilish, fanga bo'lgan qiziqishini orttirish va dars jarayonining qiziqarli o'tishini ta'minlaydi. Quizizz, Kahoot, Wordwall va Google docs kabi onlayn test yaratuvchi platformalardan foydalanib o'quvchilar bilimini nazorat qilish darsda interaktiv savol javob o'tqazish o'quvchilar qiziqishini orttirishi mumkin. Bu platformalar viktorinalar yaratuvchi maktablar va boshqa ta'lim muassasalarida sinfda qo'llaniladigan o'yin o'rganish platformasi. Platforma veb-versiyasiga ega hamda mobil smartfonlardan foydalanish ham mumkin. Quizizz, Kahoot, Wordwall, Google docs onlayn platformalardan foydalanib test topshiriqlarini yaratib o'quvchilar bilimini tekshirish uchun, guruh faoliyati uchun yoki darsda tanaffus sifatida foydalanish mumkin.

Bu onlayn platformalarda yaratilgan interaktiv o'yinli testlar o'quvchilar diqqatini tortadi. O'quvchilar o'yinlar orqali test savollarini yechadilar. O'quvchilar o'rtasida raqobatlashish, chaqqonlik, ziyraklik, diqqatlilik kabi ko'nikmalari shakllanadi. Zero raqobat bor joyda o'sish bor deb bejizga aytilmagan. Har bir savol uchun vaqt belgilangan bo'ladi shu vaqt ichida o'quvchilar javob berishlari kerak bo'ladi. Vaqt tugagach yoki barcha o'quvchilar test savollariga javob bergach ularning natijasi shu zahoti ekranda paydo bo'ladi. Agar savolni javobini qanchalik tez va to'g'ri javob bersa ushbu o'quvchiga ko'proq ball qo'shiladi. Test yakunlanganda podium ya'ni birinchi, ikkinchi va uchinchi, o'rinlar aniqlanadi.

O'quvchilar interfaol doska, proyektor, monitor yoki VNC orqali virtual ulashiladigan ekran kabi umumiy ekran atrofida to'planishadi. O'yin jarayoni oddiy: barcha o'quvchilar o'z qurilmalarida bir vaqtning o'zida savollarga javob berishadi. Savollar ekranda birin-ketin o'quvchilarga ko'rsatiladi. Ishtirokchilar har bir to'g'ri javob uchun ball oladi. Viktorina oxirida ekranda barcha ishtirokchilarning savollariga javob berish paytida to'plagan ballari ko'rsatiladi.

Shuni aytish mumkinki dars jarayonini Quizizz, Kahoot, GoogleDocs va Wordwall onlayn test yaratuvchi o'yinli platformalarda elektron testlar kompleksini yaratish va uni ta'limda qo'llash natijasida o'quvchilarning bilim berish uchun onlayn platformalardan foydalanib dars samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, darsga qiziqishini orttirish, o'tilgan mavzuni o'zlashtirish darajasi yuqori bo'lishiga darsga bo'lgan qiziqishi rivojlanishiga, darslikdan tashqari qo'shimcha



arali

usuli hisoblanadi. Bundan tashqari, testlar, xususan, onlayn testlar so'rovlar, anketalar, ma'lum bir sohaning reytingini aniqlashda ham qulay vosita hisoblanib, natijalarning tezkorligi bilan boshqa baholash mezonlaridan ajralib turadi. Google Classroom ham kurs yaratuvchilarga mana shunday imkoniyatni taqdim etib, kursga test joylashtirishning bir necha xil variantlarini taqdim etadi. Ayniqsa, Google Forms yordamida yaratilgan testlar foydalanishdagi qulayligi jihatidan barcha jabhalarda keng qo'llanilib kelinmoqda. Google Formsdagi har bir shakl veb-sahifa bo'lib, unda anketa (anketa) yoki viktorina (quiz) joylashtirilgan – tanlovda bir yoki bir nechta ishtirokchilar qatnashadigan va savollarga javob beradigan tanlov hisoblanadi.

Google Forms bilan quydagilarni qilishimiz mumkin.

- Turli tadbirlarda onlayn registratsiyadan o'tish;
- Onlayn tadqiqot o'tkazish;
- Fikrlarni jamlash (to'plash);
- Yozma kelishuvlar;
- Ovoz berish;
- Anketa so'rovnomalari va hokazo.

Google Formsning qulay va foydali tomonlari

Foydalanishdagi qulaylik. Google Forms bilan ishlash MS Word bilan ishlashdan ko'ra qiyinroq emas. Interfeysi qulay va tushunarli. Shaklni yuklab olish, mijozlarga yuborish va pochta orqali to'ldirilgan versiyani qabul qilish shart emas. 24/7 mavjudlik. Forma bulutli texnologiya asosida ishlaydi. Agar siz turli xil qurilmalardan



ishlasangiz, Google Formsdagi shaklni internet mavjud bo'lgan qurilmalardan xohlagan paytda yuklab olishingiz mumkin. Individual dizayn. Shakl (forma) uchun siz o'z dizayningizni yaratishingiz mumkin. Google Forms sizga bepul bo'lgan ko'p sonli shablonlarni tanlash yoki o'zingizning yuklashingiz mumkin bo'lgan imkoniyatni beradi.

Bepul. Xizmatning o'zi bepul. Agar siz to'satdan qo'shimcha plaginlarning kengaytirilgan versiyasiga ehtiyoj sezsangiz, to'lov qilishingiz kerak bo'ladi.

Mobillik. Google Forms mobil qurilmalarda ishlaydi. Siz to'liq funksional xususiyatlarga ega bo'lgan smartfonlar yordamida shakllarni telefoningiz va planshetingizda yaratishingiz, ko'rishingiz, tahrirlashingiz va yuborishingiz mumkin.

Tushunarliklik. Google Forms javoblar bo'yicha statistik ma'lumotlarni to'playdi va professional ravishda rasmiylashtiradi. Olingan ma'lumotlarni qo'shimcha ravishda qayta ishlashingiz shart emas, darhol natijalarni tahlil qilishni boshlashingiz mumkin.

Javoblar statistikasini diagramma shaklida, to'g'ridan-to'g'ri shaklda va respondentlarning javoblarini avtomatik ravishda yaratilgan Google elektron jadvalidan topishingiz mumkin. Google Formsdan foydalanib, siz test yaratishingiz, uni kurs ishtirokchilariga yuborishingiz va javoblarni baholashingiz mumkin. Test natijalari to'g'ri javoblar soniga qarab avtomatik ravishda hisoblanadi.

Google Forms yordamida yaratish mumkin bo'lgan test savollari turlari:

- Bitta javobli;
- Ikki va undan ortiq javobli;
- Ochiladigan ro'yxat;
- Matn (qator).



*Ushbu QrCod orqali
Youtube.comda Google Formsda test
tayyorlashni video dars orqali
o'rganing !*

Xulosa:

Bugungi kunda test o'qvuchi (talaba) bilimini opeativ baholashning eng samarali usuli hisoblanadi. Bundan tashqari, testlar, xususan, onlayn testlar so'rovlar, anketalar, ma'lum bir sohaning reytingini aniqlashda ham qulay vosita hisoblanib, natijalarning tezkorligi bilan boshqa baholash mezonlaridan ajralib turadi. Google Classroom ham



kurs yaratuvchilarga mana shunday imkoniyatni taqdim etib, kursga test joylashtirishning bir necha xil variantlarini taqdim etadi. Ayniqsa, Google Forms yordamida yaratilgan testlar foydalanishdagi qulayligi jihatidan barcha jabhalarda keng qo'llanilib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ABDURAZZOQOV, I. (2024). vUMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. News of UzMU journal, 1(1.3. 1), 61-65.
2. Rustamovich, A. I. (2024). INFORMATIKA FANIDAN INNOVATSION O'QITISH USULLARI. World scientific research journal, 25(1), 86-90.
3. Rustamovich, A. I. (2022). FRANSIYA VA AVSTRALIYA DAVLATLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINING RIVOJLANISHI, O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR. World scientific research journal, 8(1), 123-126.
4. Rustamovich, A. I. (2022). RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYASI FANINING O'RNI. PEDAGOGS Jurnal, 20(1), 58-61.
5. ABDURAZZOQOV, I. (2024). vUMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. News of UzMU journal, 1(1.3. 1), 61-65.
6. Rustamovich, A. I. (2024). INFORMATIKA FANIDAN INNOVATSION O'QITISH USULLARI. World scientific research journal, 25(1), 86-90.
7. Shuxratovich, E. U., & Rustamovich, A. I. (2024). INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA "BULUTLI TEXNOLOGIYALAR" ORQALI O'QITISH (XORIJIY DAVLATLAR MISOLIDA). World scientific research journal, 25(1), 79-85.
8. Abdurazzoqov, I. R. (2023). XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA INFORMATIKA TA'LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN TEXNOLOGIYALAR. SCHOLAR, 1(28), 323-328.
9. Yuldashev, U., Abdurazzokov, I., & Tursoatov, B. (2022). EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN TEACHING INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES. Scientific Collection «InterConf», (107), 104-108.